

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.10/2025.27.12.T.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

ABDUSATTOROV ASQARXO‘JA ABDUMAVLON O‘G‘LI

**FAVQULODDA VAZIYATLARNI OLDINI OLISH VA BARTARAF ETISH
UCHUN TONNELLARNING VAQTINCHALIK TEMIRBETON
QOPLAMASI MATERIALI TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISH**

05.10.02 – Favqulodda holatlarda xavfsizlik. Yong‘in, sanoat, yadro va radiatsiya xavfsizligi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor
of philosophy (PhD) on technical sciences**

Abdusattorov Asqarxo‘ja Abdumavlon o‘g‘li

Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish uchun tonnellarning vaqtinchalik temirbeton qoplamasi materiali tarkibini takomillashtirish.....3

Абдусатторов Аскархужа Абдумавлон угли

Совершенствование состава материала временной железобетонной крепи тоннелей для предотвращения и ликвидации чрезвычайных ситуаций.....21

Abdusattorov Askarkhuja Abdumavlon ugli

Improving the material composition of temporary reinforced concrete tunnel linings for emergency prevention and response.....41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....45

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.10/2025.27.12.T.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

ABDUSATTOROV ASQARXO‘JA ABDUMAVLON O‘G‘LI

**FAVQULODDA VAZIYATLARNI OLDINI OLISH VA BARTARAF ETISH
UCHUN TONNELLARNING VAQTINCHALIK TEMIRBETON
QOPLAMASI MATERIALI TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISH**

05.10.02 – Favqulodda holatlarda xavfsizlik. Yong‘in, sanoat, yadro va radiatsiya xavfsizligi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/T6299 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tstu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ibragimov Baxrom Toshmuratovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Abdazimov Shavkat Xakimovich
texnika fanlari doktori (DSc), professor v.b.

Kadirov Ulug‘bek Baxtiyorovich
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

**Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat
Texnika Universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi DSc.10/2025.27.12.T.01.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil 17 – mart soat 13:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100067, Toshkent sh., Temiryo‘lchilar-1, tel: (+99871) 299-00-01, 299-02-43, faks: 293-57-54; e-mail: rektorat@tstu.uz, tashiit@exat.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (323 raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100067, Toshkent sh., Temiryo‘lchilar ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (+99871) 299-05-66.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «__» _____ kuni tarqatildi.
(2026 yil «__» _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

R.V. Raximov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

Y.O. Ruzmetov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
texnika fanlari doktori, professor

S.S. Sulaymanov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda transport-kommunikatsiya infratuzilmasini kengaytirish va barqaror rivojlantirish jarayonlari tonnellarga bo'lgan ehtiyojning ortib borishiga sabab bo'layotgani, so'nggi yillarda tunnel qurilishi jarayonida kuzatilgan favqulodda vaziyatlar sonining ko'payishi esa mazkur inshootlarda xavfsizlikni ta'minlash masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda "...tog' usulidagi tunnel qurilishida favqulodda vaziyatlar oqibatida tonnellarga yetkazilgan zarar 20-30 % ni tashkil etishi va buning natijasida qurilish jarayonining 3-5 kun davomida to'xtab qolishi..."¹ ni hisobga olsak, tunnel qurilishi jarayonida favqulodda vaziyatlarning oldini olish uchun zamonaviy materiallardan foydalanish, xususan vaqtinchalik temirbeton qoplamalarning yuqori ishonchlilik ko'rsatkichlarini ta'minlash zarurati tug'iladi. Bu borada, jumladan tonnellar qurilishi jarayonida favqulodda vaziyatlarning oldini olish maqsadida resurs tejamkor va mahalliy sharoitlarga mos kompozitsion materiallardan foydalanish, shuningdek tunnel konstruksiyalarining mustahkamligini oshirish usullarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda hozirgi kunda tonnellar qurilishi jarayonida xavfsizlikni ta'minlash maqsadida vaqtinchalik temirbeton qoplama tarkibiga mahalliy bazalt tolasi qo'shib betonning sifat ko'rsatkichlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, jumladan, tonnellar vaqtinchalik temirbeton qoplamalarning favqulodda vaziyatlar sharoitida mustahkamlik va olovbardoshlik ko'rsatkichlarini ta'minlash ustuvor yo'nalishlardan hisoblanmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, tog' usulida quriladigan tonnellar uchun vaqtinchalik temirbeton qoplamalarda bazalt tolasi qo'shilgan betonning qo'llanishi, shuningdek uning favqulodda vaziyatlar sharoitida mustahkamlik va olovbardoshlik ko'rsatkichlarini ta'minlash bo'yicha nazariy va eksperimental tadqiqotlar olib borish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda tonnellar qurilishi jarayonida xavfsizlikni ta'minlashni rivojlantirish, shu jumladan tunnel qurilishi va yo'l-transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilib, bu borada muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan 82-bandida "...qurilish xarajatlarini kamaytirish hisobiga qurilishga ketayotgan vaqtni 30 % kamaytirish...", 342-bandida esa "...favqulodda vaziyatlarning oldini olish va tezkor bartaraf etish..."² bo'yicha vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish uchun tonnellar vaqtinchalik temirbeton qoplamasi materiali tarkibini mahalliy bazalt tolasi qo'shish orqali takomillashtirish dolzarb va muhim vazifalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 iyundagi "Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tizimi samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5066-sonli, 2019 yil 10 apreldagi

¹ <https://cyberleninka.ru/article/n/analiz-avariynyh-situatsiy-pri-sooruzhenii-avtodorozhnyh-tonneley-gornym-sposobom-v-inzhenerno-geologicheskikh-usloviyah-g-sochi>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 son "2022-2026 yillarda yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

“O‘zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish hamda yong‘in xavfsizligini ta‘minlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5706-sonli Farmonlari, 2019-yil 20-fevraldagi “Qurilish materiallari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish to‘g‘risida”gi PQ-4198-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 171-sonli qarori, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarga mosligi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha tadqiqotlar Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Muammoni o‘rganganlik darajasi. Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish maqsadida tonnellarning vaqtinchalik temirbeton qoplamasi materiali tarkibini takomillashtirish masalalari bo‘yicha xorijiy olimlar tomonidan keng ko‘lamli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Dunyo miqyosida tonnellar qurilishida yuzaga keladigan favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularning xavfsizligini ta‘minlash hamda zamonaviy, yuqori bardoshlikka ega qurilish materiallaridan samarali foydalanish bo‘yicha xorijiy olimlar tomonidan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, H. Wagner, A. Dix, R. Sterling, R. Gooding, Nemeskeri-Kiss G., Fiore V., Sim J., Branston J., Kabay N., Aiello M.A., H.H. Chen, Y.C. Lin, A.M. Neville, S. Mindess kabi olimlarning olib borgan tadqiqotlari bu sohada alohida ahamiyatga ega.

Respublikamizda tonnellarning mustahkamligi va favqulodda vaziyatlarga bardoshlilikini oshirish masalasi A.A. Suleymanov, B.A. Mavlyankariyev, B.T. Ibragimov, I.U. Madjidov, M.R. Bakiyev, V. Raximov, M. Urazboyev, T.Z. Sulstonov, X. Fayziyev, I.I. Usmanxojayev, K.I. Nazarov kabi olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida rivojlandi. Shuningdek, beton tarkibiga yangi avlod qurilish materiallaridan samarali foydalanish masalalarini o‘rganish borasida bir qator yetakchi olimlar U.Z. Shermuxamedov, S.S. Salixanov, Ch.S. Raupov, U. Raxmanov, N.R. Muxammadiyev G‘.B. Malikov va boshqa mutaxassislar tomonidan turli yillarda amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar mazkur yo‘nalishning yanada rivojlanishiga muhim hissa qo‘shgan.

Shu bilan birga, tonnellar qurilishi jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan turli favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda bu jarayonlarda yangi turdagi qurilish materiallaridan samarali foydalanish masalalari, shuningdek yuqori harorat ta‘sirida materialning mustahkamlik va olovbardoshlik ko‘rsatkichlarini oshirish usullarini takomillashtirish orqali qoplamaning konstruktiv ishonchliligini ta‘minlashga doir muammolar yetarli darajada o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilganoliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent Davlat transport universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi tog' usulida quriladigan tonnellarda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni samarali bartaraf etishni ta'minlash maqsadida vaqtinchalik temirbeton qoplama materiali tarkibini mahalliy bazalt tolasi qoshish asosida takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

favqulodda vaziyatlarni oldini olish maqsadida mahalliy bazalt tolasi qo'shilgan betonning mustahkamligi va uning an'anaviy betondan afzalliklarini asoslash;

favqulodda vaziyatlarga xos 400-800 °C yuqori haroratlarda bazalt tolali betonning mustahkamligini saqlash xususiyatlarini eksperimental o'rganish hamda uning ishlab chiqarish texnologiyasi va qo'llash metodikasini takomillashtirish;

favqulodda vaziyatlarni oldini olish maqsadida fibrobetonning mustahkamligi va olovbardoshligiga fibra qo'shimchasining ta'sirini baholash hamda evakuatsiya jarayonini ishlab chiqish;

tonnel qurilishida xavfsizlikni ta'minlash va favqulodda vaziyatlar yuzaga kelish ehtimolini kamaytirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish;

favqulodda vaziyatlarni oldini olish maqsadida tunnel qurilishida mahalliy bazalt tolali betonni qo'llashning xavfsizlik va iqtisodiy samaradorligini asoslash.

Tadqiqot obyekti sifatida respublikamizdagi tog' usulida quriladigan tonnellarni barpo etish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar, shuningdek, ushbu vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish jarayonlari olingan.

Tadqiqot predmeti sifatida tog' usulida quriladigan tonnellar uchun fibra beton asosidagi vaqtinchalik temirbeton qoplamalarning mustahkamlik va olovbardoshlik xususiyatlari, shuningdek favqulodda vaziyatlar sharoitida evakuatsiya vaqtini aniqlash va ularni bartaraf etish jarayonini takomillashtirish hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida matematik statika, matematik tahlil, eksperiment, tizimli va nazariy tahlil, fizik-kimyoviy tahlilning zamonaviy usullari, tog' usulida quriladigan tonnellar vaqtinchalik temirbeton qoplama uchun beton tarkibini takomillashtirish, hamda me'yoriy hujjatlarda belgilangan usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tonnellarning vaqtinchalik temirbeton qoplamalarida mahalliy bazalt tolasi qo'shilgan va qo'shilmagan betonlarni qo'llash natijalari asosida fibrabetonning an'anaviy betondan 15 % gacha mustahkamroq ekanligi aniqlangan;

temirbeton tunnel qoplamalaridagi beton tarkibiga bazalt tolasi qo'shilishi natijasida fibrabetonning 400-800 °C harorat sharoitida o'z mustahkamligini saqlab qolishi aniqlanib, ushbu natijalar asosida fibrabetonni ishlab chiqarishning texnologik sxemasi hamda uning amaliy qo'llash metodikasi takomillashtirilgan;

favqulodda vaziyatlarni oldini olish maqsadida fibrobetonning mustahkamligi va olovbardoshligiga bazalt qo'shimchasining ta'sirini o'rganish natijasida tunnel qoplamasining xavfsizlik ko'rsatkichlari baholangan va favqulodda vaziyatlarda evakuatsiya jarayoni ishlab chiqilgan;

tonnel qoplamalarida bazalt tolali betonni qo'llashning texnik, xavfsizlik va iqtisodiy samaradorligi kompleks ravishda o'rganilib, mazkur materialdan

foydalanish favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularning salbiy oqibatlarini kamaytirishda samarali ekanligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

favqulodda vaziyatlarda konstruksiya barqarorligini baholash uchun 400-800 °C harorat oralig'ida bazalt tolali betonning an'anaviy betonga nisbatan mustahkamlikni 20-25 % yuqoriroq saqlashi eksperimental ravishda aniqlangan;

favqulodda vaziyatlarda evakuatsiya xavfsizligini baholash bo'yicha hisob-kitoblar asosida, betonning yuqori haroratda barqarorligi odamlarni xavfsiz evakuatsiya qilish uchun zarur vaqt zaxirasini yaratishi aniqlangan;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish maqsadida bazalt tolali betonni qo'llash tunnel qurilishida ish jarayonining xavfsizligini oshirishi hamda umumiy qurilish xarajatlarini 5-7 % gacha qisqartirish imkonini berishi texnik-iqtisodiy jihatdan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. O'tkazilgan ilmiy izlanishlarning zamonaviy ilmiy-uslubiy yondashuvlar asosida, yuqori aniqlikka ega bo'lgan o'lchash vositalari va sertifikatlangan laboratoriya uskunalaridan foydalangan holda amalga oshirilganligi bilan belgilanadi. Nazariy va eksperimental tadqiqotlar o'zaro adekvatligi, shuningdek, favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish maqsadida tog' usulida quriladigan tonnellar uchun vaqtinchalik temirbeton qoplama tarkibiga bazalt tolasi qo'shilganda betonning mustahkamlik, olovbardoshlik, suv o'tkazmaslik va sovuqqa chidamlilik xususiyatlari bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining ijobiy natijalari hamda olingan ilmiy xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati tog' usulida quriladigan tonnellarining vaqtinchalik temirbeton qoplamalari uchun mahalliy bazalt tolasi qo'shilgan betonning mustahkamligi va olovbardoshligini oshirish masalalarining nazariy hamda amaliy jihatdan asoslab berilganligi, shuningdek favqulodda vaziyatlar sharoitida evakuatsiya xavfsizligi darajasini aniqlash uchun qo'llaniladigan hisoblash usulining ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o'tkazilgan eksperimental tadqiqotlar natijasida favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish maqsadida tog' usulida quriladigan tonnellarining vaqtinchalik temirbeton qoplama uchun mahalliy bazalt tolasi qo'shilgan betonning mustahkamlik va olovbardoshlik ko'rsatkichlari amalda tasdiqlandi hamda evakuatsiya xavfsizligi darajasini aniqlashga mo'ljallangan hisoblash usuli tunnel qurilish jarayonida qo'llanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilish. Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish uchun tonnellarining vaqtinchalik temirbeton qoplama materiali tarkibini takomillashtirish bo'yicha o'tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishi natijalari asosida:

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish maqsadida tonnellarining vaqtinchalik temirbeton qoplamalari uchun beton tarkibiga mahalliy bazalt tolasi qo'shish hamda ushbu tarkibni takomillashtirish bo'yicha taklif etilgan yechim Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar bosh boshqarmasi tomonidan loyihalash jarayoniga joriy etildi (O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining 2025-yil 28-oktabrdagi, 3/4/30-3264-sonli ma'lumotnomasi). Natijada,

takomillashtirilgan ushbu beton tarkibidan foydalanish hisobiga taklif etilayotgan kompozitsion materiallarning olovbardoshligi oshishi tufayli tonnellarning yong'inga qarshilik ko'rsatish qobiliyati va mustahkamligi 9-15 % gacha yaxshilangan hamda yemirilish yoki qulab tushish xavfi kamayishi imkonini bergan;

tonnel qurilishida favqulodda vaziyatlarning oldini olish, qurilish jarayonini tezlashtirish va umumiy samaradorlikni oshirish maqsadida beton tarkibiga mahalliy bazalt tolasi qo'shish bo'yicha taklif etilgan yechimlar Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanidagi Pskem daryosida barpo etilayotgan Pskem GES qurilishi ob'ekti tarkibidagi tunnel qurilishida vaqtinchalik mahkamlovchi tizim sifatida qo'llash uchun tavsiya etilgan fibrabeton Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar bosh boshqarmasi tomonidan amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining 2025-yil 28-oktabrdagi, 3/4/30-3264-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, takomillashtirilgan ushbu beton tarkibini qo'llash tunnel ichida ishlash xavfsizligi darajasini oshirish bilan birga, umumiy qurilish xarajatlarini 5-7 % gacha qisqartirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining natijalari 2 ta xalqaro va 9 ta respublika ilmiy-texnik anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhoqamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan 7 ta respublika va 1 ta chet el ilmiy jurnallarida nashr etilgan.


Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 117 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida uning dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, tadqiqotning maqsadi hamda vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan. Shuningdek, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Ilmiy yangilik va amaliy natijalar bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar bayon qilingan.

Dissertatsiyaning **“Tonnel qurilishida xavfsizlikni ta'minlash va vaqtinchalik temirbeton qoplamalarning mustahkamligini oshirishning hozirgi holati va dolzarb muammolari”** deb nomlangan birinchi bobida tonnellarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning – yong'in, portlash, gruntning o'pirilishi, suv bosishi va deformatsiyalar kabi xavfli jarayonlarning manbalari, shakllanish mexanizmlari va oqibatlari atroflicha yoritilgan (1-rasm). Yer osti inshootlarida, jumladan, tonnellar qurilishida sodir bo'ladigan avariya holatlari ularning “yuqori xavf zonasi” sifatida baholanishiga sabab bo'lishi, ayniqsa vaqtinchalik temirbeton qoplamalarning favqulodda vaziyatlar sharoitida eng zaif bo'g'in sifatida shakllanishi ilmiy asosda ko'rsatib berilgan (2-rasm). Fibrobetonlardan, xususan, bazalt tolali

betonlardan foydalanishning ilmiy asoslari keng tahlil qilingan. Turli tolalarning xususiyatlari solishtirilgan va ularning mustahkamlik ko'rsatkichlari keltirilgan.



1-rasm. Favqulodda vaziyatlar tasnifi



2-rasm. Tonnel qurilishida favqulotda vaziyatlar

Tonnellarga ularni qurish va ekspluatatsiya qilish jarayonida gruntlar va grunt suvlari ta'sir qilganligi sababli, bunday konstruksiyalarning namligi yetarlicha yuqori bo'lishi mumkin, bu esa vaqtinchalik mahkamlangan betonning mustahkamligi kamayishiga va portlashsimon yemirilishning yuzaga kelish ehtimolini oshiradi. Shu sababli, tonnellarning vaqtinchalik mahkamlovchi konstruksiyalarini turli bosimlardan, zarbalardan va portlab yemirilishdan himoya qilish zarur.

Tonnellar qurilishi sohasida sifat va ishonchlilik talablarining ortib borishi loyihalashdan tortib, beton mustahkamligini oshirishning takomillashtirilgan usullarini qo'llashgacha bo'lgan barcha bosqichlarda risk omillarini aniqlash va ularni kamaytirishni talab etadi. Tonnellar infratuzilmaning muhim qismi bo'lib, ularning mustahkamligi va xavfsizligi eng ustuvor masalalardan biridir. Shu bois, tonnel konstruksiyalarida zamonaviy materiallardan, ayniqsa fibrobetonlardan foydalanish dolzarb hisoblanadi.

Fibrobetonning afzalligi-uning yuqori mustahkamligi, yeyilishga chidamliligi, qulay ishlatilishi va xizmat muddati uzunligi bilan bog‘liq. Biroq, ishlab chiqarish texnologiyasi oddiy betondan murakkabroq bo‘lgani sababli uni keng qo‘llashda ma‘lum cheklovlar mavjud. Shu bilan birga, olib borilgan sinovlar beton tarkibiga tolalar qo‘shishning samarali ekanini ko‘rsatdi. Xususan, 1-jadvalda keltirilganidek, turli tolalarni qo‘shish egilishdagi mustahkamlikning sezilarli darajada oshishiga olib keladi. Eng yuqori natijalar amorf metall va po‘lat tolalar qo‘shilgan betonlarda qayd etilib, egilishga mustahkamlik 70 % dan ortiq oshgani aniqlangan.

1-jadval

Betonning mustahkamlik xususiyatlariga tolaning ta‘sirini o‘rganish natijalari

<i>Tadqiqotchilar</i>	<i>Ishlatilgan tola turi</i>	<i>Fibraning miqdori, hajm bo‘yicha %.</i>	<i>Mustahkamlikning oshishi R_{izg}, MPa</i>
Vasilovskaya N.G.	Bazalt 12 mm	0,1-0,25 % hajm bo‘yicha	262
Bogdanova Y.R.	Polipropilen 55mm	0,1-0,2 % hajm bo‘yicha	111
Panteleyev D.A.	Amorf metall 30 mm + po‘lat 54 mm	0,1-2,0 % hajm bo‘yicha	277
Korneyeva I.G.	Bazalt 4,6 va 15 mm	0-5 % hajmi bo‘yicha	210

Dissertatsiyaning **“Beton namunalari tayyorlash va sinov usullarining metodik asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobida beton namunalari tayyorlash hamda sinovdan o‘tkazishning metodik yondashuvlari yoritilgan bo‘lib, betonning mustahkamlik xususiyatlarini aniqlash bo‘yicha tajribalarda qo‘llaniladigan materiallarning fizik-mexanik xossalarini o‘rganish masalalari batafsil bayon etilgan. Taklif etilayotgan mahalliy bazalt tolasini qo‘shilgan beton namunalari tayyorlash jarayonining texnologik ketma-ketligi, tajribalarni o‘tkazish tartibi hamda laboratoriya jarayonlarining texnologik sxemasi to‘liq yoritilgan. Shuningdek, beton namunalari siqilishdagi mustahkamligi, prizmatik mustahkamligi, muzlashga bardoshlilik va suv o‘tkazmasligini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlarning metodik asoslari bayon etilib, ilmiy asoslangan holda keltirilgan.

Qumning donadorlik tarkibi va yiriklik moduli GOST 8735-88 bo‘yicha aniqlandi. Elaklardagi qoldiqlar tarozida tortildi va qum tarkibidagi donalar o‘lchami 5 dan 10 mm gacha (Gr5) va 10 mm dan yuqori (Gr10) bo‘lgan chaqiq tosh fraksiyalarining massa ulushi quyidagi formulalar bo‘yicha hisoblab chiqildi:

$$Gr_{10} = \frac{M_{10}}{M} \cdot 100; \quad (1)$$

$$Gr_5 = \frac{M_5}{M} \cdot 100; \quad (2)$$

Elash natijalariga ko‘ra quyidagilar hisoblab chiqildi: har bir elakdagi xususiy qoldiq (a_i) foizda quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi

$$a_i = \frac{m_i}{m} \cdot 100 \quad (3)$$


har bir elakdagi to‘liq qoldiq (A_i) foizlarda quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi

$$A_i = a_{2,5} + a_{1,25} + \dots - a_i \quad (4)$$

O‘lchami 5 mm dan katta bo‘lgan donalarsiz qumning yiriklik modulini (M_k) quyidagi formula bo‘yicha aniqlaymiz

$$M_k = \frac{A_{2,5} + A_{1,25} + A_{063} + A_{0315} + A_{016}}{100} \quad (5)$$

Dispers-armaturalangan beton ishlab chiqarishning texnologik sxemasi 3-rasmda keltirilgan.




3-rasm. Dispers-armaturalangan beton ishlab chiqarishning texnologik sxemasi va namunalarni tayyorlash jarayoni

Fibrobeton ishlab chiqarish texnologiyasi asoslangan tarkibga va boshlang'ich materiallarning oqilona kombinatsiyasiga bog'liq. Fibrobetonning zichligi beton qorishmasida tolalarning bir tekis tarqalishi va ularning qorishmada to'g'ri joylashishini ta'minlashga bog'liq.

Beton qorishmalarining fizik-mexanik xossalarini tadqiq qilish

Kubik mustahkamlikni aniqlash usuli laboratoriya sharoitlarida betonning siqilishga chidamliligini aniqlash uchun ishlatdik. Ushbu usul beton tarkibining mustahkamlik darajasini baholash imkonini beradi. Namunalar tekshirilgan qoliplarda texnik shartlarning tegishli talablariga mos keladigan laboratoriyaning vibromaydonchasida qoliplash metodi bilan tayyorlandi (3-rasm).

Prizmatik mustahkamlikni aniqlash usuli betonning real konstruktiv sharoitdagi ishlash holatini baholash uchun qo'llanildi. Ushbu usul vaqtinchalik temirbeton qoplamalarda betonning deformatsiyaga bardoshlilikini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlab olingan optimal tarkib asosida betonning prizmatik mustahkamligini aniqlash uchun namunalar tayyorlandi (3-rasm). Nazorat beton namunalari kubik va prizmatik mustahkamlik sinovi natijalari 4-rasmda keltirilgan.



4-rasm. Na'munalarni siqilishga va prizmatik mustahkamlikka sinash natijalari

Olib borilgan siqilishga mustahkamlik sinovlari shuni ko'rsatdiki, bazalt tolali beton qo'shilgan namunalar dastlabki qotish davrlarida (1, 3 va 7 sutkada) an'anaviy beton namunalariga nisbatan yuqoriroq mustahkamlik ko'rsatkichlarini namoyon etdi. 28 sutkada har ikki turdagi beton ham meyoriy mustahkamlikka erishdi, lekin bazalt tolali beton bir oz ustunlikni saqlab qoldi. Bu bazalt tolasining beton matritsasidagi yoriqlar tarqalishini susaytirish va ichki kuchlanishlarni bir maromda taqsimlash xususiyatlari bilan izohlanadi. Umuman olganda, bazalt tolali beton tonnillardagi vaqtinchalik mahkamlovchi va torket betonlash uchun istiqbolli material bo'lib, qurilish muddatini qisqartirish imkonini beradi.

Beton silindrlarning suv o'tkazmasligini aniqlash "ho'l dog' (мокрого пятна)" usuli bilan amalga oshirildi. Tekshirilayotgan ikki turdagi W_B (tarkibida bazalt tolalari mavjud bo'lgan beton) va W_K (tarkibida bazalt tolasini qo'shilmagan beton) namunalarida suv o'tkazuvchanlik xossalari 2-jadvalda aks ettirilgan.

2-jadval

Namuna-silindrlarning xususiyatlari W_B va W_K

№	Namunalar	Silindr o'lchamlari, sm		Namuna og'irligi, g	Namuna-silindrlarning zichligi, g/sm ³	Buzuvchi yoruvchi yuklama, MPa
		Diametr	Balandlik			
1	W_B	14,9	15,1	6450	2,45	0.8
2		14,9	15	6452	2,47	0.78
3		15	15	6465	2,44	0.82
4		14,9	15,1	6468	2,46	0.70
5		14,9	15,1	6455	2,45	0.68
6		15	15	6471	2,45	0.66
1	W_K	15	15,1	6414	2,40	0.62
2		15	15	6432	2,42	0.64
3		15	15,1	6412	2,40	0.63
4		15	15	6422	2,42	0.64
5		15,1	15	6426	2,38	0.68
6		15	15,1	6422	2,41	0.60


Dissertatsiyaning "Tonnel qoplamasining olovbardoshligi va xavfsizlik ko'rsatkichlarini baholash hamda evakuatsiya jarayonini ilmiy asoslash" deb nomlangan uchinchi bobida tonnellarni favqulodda vaziyatlardan himoyalashda fibrobeton qo'llashning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Yuqori harorat ta'sirida betonning portlab yemirilishi yuzaga kelish sabablari va mexanizmi, beton tarkibiga qo'shiladigan bazalt tolalarning mustahkamlik va olovbardoshlikka ta'siri eksperimental sinovlar asosida o'rganilgan. Shuningdek, favqulodda vaziyatlarda evakuatsiya jarayonini baholash bo'yicha hisob-kitoblar ishlab chiqilib, tonnillarda bazalt tolali beton qo'llanishi konstruksiyaning yuqori haroratdagi barqarorligini oshirishi, natijada evakuatsiya uchun qo'shimcha vaqt zaxirasini yaratishi va tonnel ichida xavfsiz chiqishni ta'minlashi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Ilmiy adabiyotlarda turli xil tolalar qo'shilgan betonlar ustida olib borilgan va betonning mustahkamligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan tadqiqotlar haqida ma'lumotlar mavjud. Biroq, ushbu ishlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, ularni qizdirish natijasida

mustahkamlik ko'rsatkichlarining o'zgarishi to'g'risidagi ma'lumotlar yetarli emas, bu esa hisoblash usullari uchun juda muhimdir.

Namunalarning qotish muddati tugagandan so'ng, ya'ni beton namunalarinig yoshi 28 kunga yetgach beton namunamiz to'liq o'z mustahkamligiga erishdi shundan so'ng quyida keltirilgan usullar yordamida bir nechta sinovlar amalga oshirildi va namunalar 30 daqiqa davomida 400-800 °C doimiy haroratgacha qizdirildi. Hisob diametri sifatida olingan natijalar bo'yicha sinash natijalarining o'rta arifmetik qiymati sifatida hisoblab chiqariladi. Beton namunalarini olovbardoshlikka sinash jarayoni va diagrammasi 5-rasmda va sinash ishlari 3-jadvalda keltirilgan. Betonning siqilishdagi mustahkamligi R_{siq} , MPa quyidagicha aniqlanadi

$$R_{siq} = d_b/d_e, \text{ MPa} \quad (6)$$



5-rasm. Beton namunalarini olovbardoshlikka sinash jarayoni va diagrammasi

3-jadval

Beton namunalarini olovbardoshlikka sinash natijalari

No	Beton turi	Beton namunaning boshlang'ich markasi, M	Qizdirish harorati, °C	Qizdirish vaqti, daqiqa	d_b mm	d_e mm	d_b/d_e	Beton namunasining qizdirishdan keyingi mustahkamligi va markasi, MPa/M
1	Oddiy betoni	M250	400	30	25	9,6	2,6	9,60/M100
2	Tarkibiga bazalt tolasi qo'shilgan beton	M250	400	30	21	9,2	2,3	12,80/M150
3	Oddiy betoni	M250	800	30	0	0	0	0/M0
4	Tarkibiga bazalt tolasi qo'shilgan beton	M250	800	30	30	10	3	4,35/M50

Evakuatsiya hisob-kitobi tonneldagi yong'in, portlash, grunt opirilishi yoki to'satdan suv bosishi kabi favqulodda vaziyatlar sharoitida odamlarni xavfsiz joyga tezkor va samarali olib chiqish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan. Bunda hisoblash inson oqimining harakat tezligi, tunnel uzunligi, chiqish yo'laklari soni va joylashuvi, havo harorati va tutun ta'sirida harakat tezligining o'zgarishi kabi parametrlar asosida amalga oshirildi.

Favqulodda vaziyatlarda tunnel ichidagi insonlar xavfsizligini ta'minlashning eng muhim bosqichi evakuatsiya jarayonining to'g'ri tashkil etilishidir. Tunnel konstruksiyasining mustahkamligi va olovbardoshligi bilan bir qatorda, evakuatsiya yo'llarining optimal joylashuviga muvofiqligi xavfsizlik konsepsiyasining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Evakuatsiya hisob-kitobining asosiy maqsadi – odamlar hayotiga xavf tug'diruvchi omillar ta'siri ostida tonneldan chiqish uchun zarur bo'lgan vaqtni aniqlashdir. Ushbu vaqt tunnel konstruksiyasining olovbardoshlik muddati va bardoshlilik chegarasi bilan taqqoslanadi.

Evakuatsiya jarayonining tezligi va samaradorligi bir qator omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida tunnelning uzunligi, shakli va egri-bugriligi va chiqish yo'laklari hamda joylashuvi, yoritish va signalizatsiya tizimlarining ishonchli ishlashi, havo almashinuvi va tutunga qarshi ventilyatsiya tizimlarining samaradorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, tunnel ichidagi odamlar soni, ularning joylashuvi, jismoniy holati va psixologik tayyorgarligi ham evakuatsiya jarayonining tezligi va xavfsizligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, yo'l qoplamasining holati, xavfsizlik belgilarining aniq ko'rinishi va evakuatsiya yo'laklarining to'siqlardan xoli bo'lishi ham jarayonning muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim omillardan hisoblanadi.

Tadqiqot obekti sifatida tog' usulida quriladigan tunnel olindi, tunnel qurilish jarayonida favqulodda vaziyat sodir bo'lganda evakuatsiyaning hisobiy vaqti ushbu tunnel ichidagi odamlarning maksimal oqim zichligida harakatlanib xavfsiz hududga chiqishi uchun zarur vaqtni aniqlash orqali amalga oshiriladi. Dastlabki amalga oshiradigan ishimiz, umumiy evakuatsiya yo'lini tunnelning eng ichkari qismidan boshlab undagi kishilar sonining ortib borishi va evakuatsiya yo'llarining o'lchamlari va qiyaliklari o'zgarishiga qarab uchastkalarga bo'lib chiqishdan iborat.

1-uchastka. Evakuatsiya yo'lining eng uzoqda joylashgan masofa $L_1=292$ m;

2-uchastka. Evakuatsiya yo'lini chiqish qismi joylashgan masofa $L_1=129$ m;

Odamlarni tonneldan evakuatsiya qilishning hisobiy vaqti (t_h) yuqorida keltirilgan uchastkalardagi odamlar oqimi harakati vaqtining yig'indisiga asoslanib quyidagicha aniqlanadi:

$$t_p = t_1 + t_2 + t_3 + \dots + t_n, \quad (7)$$

bu vaqtni aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz


$$t_1 = \frac{L_1}{v_1}, \quad (8)$$

endigi amalga oshirilishi lozim bo'lgan ish odamlar oqimi zichligini aniqlash.

Odamlar oqimi zichligi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$D_1 = \frac{N_1 f}{L_1 \delta_1}, \quad (9)$$

Tonneldan evakuatsiya uchun xisobiy vaqt taqriban **5,5 daqiqani** tashkil etmoqda. Albatta, bu evakuatsiyaning haqiqiy vaqtidan biroz farq qiladi. Chunki, haqiqiy vaqtga turli omillar: tonnelda turli yoshdagi va jismoniy holatdagi kishilarning mavjud bo'lishi, evakuatsiya yo'llarining berkilib qolishi va boshqa ehtimoliy omillar jiddiy tasir ko'rsatadi.



6-rasm. Tonnelling umumiy ko‘rinishi va evakuatsiya sxemasi

Dissertatsiyaning “**Tonnellarda favqulodda vaziyatlarning oldini olish maqsadida bazalt tolali betonlarni qo‘llash orqali xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha tavsiyalar va iqtisodiy samaradorlikni asoslash**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida tunnel qurilishida sifat va xavfsizlikni ta‘minlash hamda favqulodda vaziyatlarga barqaror qoplama yaratish bo‘yicha tog‘ sharoitida quriladigan tonnellar xavfsizligini oshirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, tog‘ usulida quriladigan tonnellarda bazalt tolali betonni qo‘llashning xavfsizlik, texnik va iqtisodiy jihatdan afzalliklari ilmiy asosda yoritilgan. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish maqsadida bazalt tolali betonlarni tonnelling vaqtinchalik temirbeton qoplamalarida qo‘llash samaradorligini asoslashning ahamiyati ochib berilgan. Ushbu materialning favqulodda vaziyatlarda – yong‘in, portlash, yuqori harorat va o‘pirilish kabi xavf omillari sharoitida konstruksiyaning barqarorligini oshirishi ilmiy dalillar bilan asoslangan.

O'tkazilgan tadqiqotlar asosida tonnellarini loyihalash va qurishda risk tahlilini o'tkazish bo'yicha tavsiyalar berish mumkin. Risk darajasi inshootning ekspluatatsion ishonchligini belgilovchi kritik qiymatlar bo'yicha konstruksiyaning chegaraviy holatga yaqinlashish ehtimoli bilan tavsiflanadi va ushbu formula bo'yicha aniqlanadi:

$$V=1-P \quad (10)$$

bunda $P=1/2+F(\gamma)$ – yer osti inshootining buzilmasdan ishlash ehtimolligi, $F(\gamma)$ esa A.R Rjanitsin bo'yicha xavfsizlik koeffitsientida Laplas funksiyasi.

Riskni me'yorlashda mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan o'rtachalashtirilgan variantdagi shkaladan foydalanishni taklif qiladi, u 4-jadvalda keltirilgan. Ushbu shkalaga muvofiq, tunnel qurilishi tarmog'idagi maqbul risk darajasi 10^{-3} ga teng bo'lgan risk qiymatiga mos keladi.

4-jadval

Risk shkalasi

Risk darajasi	Riskni miqdoriy baholash (V)	Konstruksiyalarning ishlash sohasi
Juda past	$10^{-7} \dots\dots 10^{-6}$	Aviakosmik
Past	$10^{-6} \dots\dots 10^{-4}$	AES va boshqa o'ta muhim inshootlar
O'rtacha	$10^{-3} \dots\dots 10^{-1}$	Transport va sanoat-fuqarolik qurilishi
Baland	$10^{-1} \dots\dots 1,5 \times 10^{-1}$	Asbobsozlik (ommaviy buyumlar)
Yo'l qo'yilmaydigan	$>1,5 \times 10^{-1}$	-
Halokatli	$>0,5$	-

Konstruksiyaning ma'lum bir risk zonasi va buzilmasdan ishlash ehtimoliga qarab, risk darajasini aniqlash kerak. Keltirilgan mezonlarni xavfli vaziyatlarni muayyan tartib va butun yer osti inshootining xavflilik darajasini aniqlash uchun qo'llash tavsiya etiladi. Bunda A daraja xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan choralarni talab qiladigan yuqori (qabul qilib bo'lmaydigan) risk darajasiga, V va S daraja xavfning o'rtacha darajasiga, D daraja esa eng xavfsiz sharoitlarga mos keladi. Yuqorida aytib o'tilgan toifadagi har bir xavfli vaziyat uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarini besh bosqichga bo'lish lozim (5-jadval).


5-jadval

Risk oqibatlari

Bosqich	Texnik xususiyatlari	Qurilish muddatlari	Qurilish qiymatidan %	Boshqa ta'sirlar
1	Minimal ta'sir yoki ta'sirning yo'qligi	Minimal ta'sir yoki ta'sirning yo'qligi	Minimal ta'sir yoki yo'qligi	Hech qanday
2	Zaxiraning biroz kamayishi bilan maqbul oqibatlar	Qo'shimcha resurslar talab etiladi. Ish belgilangan muddatlarda bajarilishi mumkin.	<5 %	Biror ta'sir
3	Zaxiraning sezilarli darajada kamayishi bilan maqbul oqibatlar	Asosiy bosqichlarda kichik uzilish. Ish belgilangan muddatda bajarilmaydi.	5-7 %	O'rtacha ta'sir
4	Barcha zaxiralardan foydalangan holda maqbul oqibatlar	Qurilishning asosiy bosqichlarida jiddiy uzilish	7-10 %	Kuchli ta'sir
5	Nomaqbul oqibatlar	Belgilangan muddatlarda texnologik jarayonni bajarishning iloji yo'q.	>10%	Nomaqbul ta'sir

Qurilish ishtirokchilarining moliyaviy xarajatlari nuqtai nazaridan, riskni maqbullik darajasi ehtimoliy zarar miqdorini kamaytirish xarajatlari bilan belgilanadi. Zarar miqdorini baholash iqtisodiy maqsadga muvofiqlik muammosini hal qilish va loyihani yaratish va amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy xarajatlarni optimal taqsimlash natijasida aniqlanadi.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olishda bazalt tolali betonlarning tog' usulida quriladigan tonnellarda qo'llanilishi tunnel inshootlarini qurish jarayonlarining texnik va iqtisodiy samaradorligini sezilarli darajada oshiradi (7-rasm).



7-rasm. Samaradorlik ko'rsatkichi

An'anaviy foydalanishdagi va bazalt tolali beton qorishmasini tayyorlash xarajatlari materiallar, ishchi kuchi va mashina-mexanizmlar uchun sarflangan miqdorlarning umumiy narxlari yig'indisiga bog'liq holda quyidagicha hisoblanadi:

$$C_{cm} = C_m + C_w + C_{mch} \quad (11)$$

Beton qorishmasining yakuniy material narxi uni tayyorlashda foydalanilgan qurilish materiallari – portlandsement, granulometrik tarkibi me'yorlangan chaqiq tosh, qum, ichimlik darajasidagi texnik suv hamda modifikatsiyalovchi kimyoviy qo'shimchalar (*plastifikatorlar*) narxlari yig'indisiga bog'liq holda quyidagicha texnik-iqtisodiy tahlil asosida hisoblanadi:


$$C_m = C_c \cdot Q_c + C_{sh} \cdot Q_{sh} + C_s \cdot Q_s + C_{wt} \cdot Q_{wt} + C_{ct} \cdot Q_{ct} \quad (12)$$

Quyidagi formulalar orqali beton qorishmasini tayyorlash uchun sarflangan ishchi kuchi (mehnat sarfi) va mashina-mexanizm xarajatlari aniqlanadi:

$$C_w = C_r \cdot Q_{wk} \quad (13)$$


$$C_{mch} = C_f \cdot Q_f + C_{cf} \cdot Q_{cf} \quad (14)$$

Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar loyihalashtirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan metodologik, nazariy va amaliy xatoliklar, tog' jinslarining noaniq va notekis ko'chishi (*geodinamik o'zgarishlar*), shuningdek, qurilish-montaj ishlari, xususan portlatish jarayonlaridagi xavf omillari sababli o'zgaruvchanlikka ega bo'lishi mumkin.



8-rasm. Tog' usulida qurilayotgan tunnel ko'ndalang kesim yuzasi

Quyida Gantt diagrammasi yordamida oddiy beton va bazalt tolali beton ishlatilgan holatlarda 10 segmentdan iborat tunnel ungurini uchastkasini betonlash ishlarini o'zaro taqqoslaymiz (9-rasm).



9-rasm. Oddiy va bazalt tolali beton qorishmalari asosida tunnel segmentlari betonlash jadvali

Ushbu diagrammadan ko'rishimiz mumkinki, bazalt tolali betonning qotuvchanligi yuqoriroq bo'lgani sababli har bir betonlash sikli 1 kun muddatga qisqaradi. Bu esa umumiy loyihaning yakuniy muddatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu samaradorlik vaqt omili bilan bog'liq iqtisodiy foyda, texnika va mehnat resurslarining takroriy ishlatilishi, ishchilarni boshqa uchastkalarga tezroq jalb etish va loyiha kechikishlarining oldini olish orqali ta'minlanadi.

XULOSA

“Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish uchun tonnellarining vaqtinchalik temirbeton qoplamasi materiali tarkibini takomillashtirish” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar keltirilgan:

1. Tog‘ usulida quriladigan tonnellar qurilishi jarayonida yuzaga keladigan favqulodda vaziyatlar (yong‘in, portlash, opirilish, suv bosishi) eng avvalo vaqtinchalik temirbeton qoplamalarning mustahkamligi va olovbardoshligi bilan bevosita bog‘liqligi ilmiy asosda ko‘rsatib berildi.

2. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish maqsadida tog‘ usulida quriladigan tonnellarining vaqtinchalik temirbeton qoplamalari uchun mahalliy bazalt tolasi qo‘shilgan betonning mustahkamlik, suv o‘tkazmaslik va sovuqqa chidamlilik ko‘rsatkichlari an’anaviy betonga nisbatan yuqori ekanligi eksperimental tadqiqotlar orqali tasdiqlandi.

3. Favqulodda vaziyatlarda, xususan yong‘in va portlash sharoitlarida, 400-800 °C harorat oralig‘ida bazalt tolali betonning an’anaviy betonga nisbatan mustahkamlikni 20-25 % yuqoriroq darajada saqlab qolishi tajribalar orqali isbotlanib, konstruksiyaning vaqtinchalik barqarorligini oshirishi ilmiy asosda ko‘rsatildi.

4. Favqulodda vaziyatlarda tunnel ichida xavfsiz evakuatsiyani ta’minlash uchun betonning yuqori haroratdagi qoldiq mustahkamligi asosida evakuatsiya xavfsizligini baholash bo‘yicha hisob-kitoblar ishlab chiqildi.

5. Favqulodda vaziyatlarning eng noqulay ssenariylarida ham evakuatsiya uchun zarur bo‘lgan vaqt 20 daqiqagacha yetishi aniqlanib, bazalt tolali beton asosidagi vaqtinchalik temirbeton qoplamalarning olovbardoshlik va konstruktiv mustahkamlik chegarasi 30 daqiqani tashkil etishi sababli, ushbu vaqt oralig‘i xavfsiz evakuatsiyani ta’minlash uchun yetarli ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

6. Tog‘ usulida quriladigan tonnellar uchun bazalt tolali beton asosidagi vaqtinchalik temirbeton qoplamalardan foydalanish favqulodda vaziyatlarga bardoshlilikni oshirishi bilan birga, qurilish jarayonida xavfsiz ish zonasini shakllantirishga hamda favqulodda vaziyatlarda inson hayotini saqlab qolishga xizmat qilishi mumkin.

7. Favqulodda vaziyatlarni oldini olish nuqtai nazaridan bazalt tolali betonni qo‘llash hisob-kitoblarga ko‘ra nafaqat tonnellar xavfsizligini oshirishi, balki umumiy qurilish xarajatlarini 5-7 % ga qisqartirishi aniqlanib, ushbu materialning texnik va iqtisodiy samaradorligi kompleks tarzda ilmiy asoslab berildi.

Muallif dissertatsiya mavzusini tanlash, qimmatli maslahatlar berish, tadqiqotlarni amalga oshirish, natijalarni muhokama qilish va joriy etish jarayonida, shuningdek o‘tkazilgan nazariy va eksperimental tadqiqotlar natijalarini o‘zaro taqqoslash hamda takomillashtirish masalalarida ko‘rsatgan yordamlari uchun Texnosfera xavfsizligi kafedراسi professori, t.f.d. S.S. Sulaymanovga, ilmiy rahbari t.f.d., professor B.T. Ibragimovga hamda “Ko‘priklar va tonnellar” kafedراسi mudiri t.f.d., professor U.Z. Shermuxamedovga chuqur minnatdorchilik izhor etishni o‘zining burchi deb hisoblaydi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ
СТЕПЕНЕЙ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
DSc.10/2025.27.12.T.01.03 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ТРАНСПОРТНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТРАНСПОРТНЫЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

АБДУСАТТОРОВ АСКАРХОЖА АБДУМАВЛОН УГЛИ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СОСТАВА МАТЕРИАЛА ВРЕМЕННОЙ
ЖЕЛЕЗОБЕТОННОЙ КРЕПИ ТОННЕЛЕЙ ДЛЯ ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ И
ЛИКВИДАЦИИ ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЙ**

**05.10.02 - Безопасность в чрезвычайных ситуациях. Пожарная, промышленная, ядерная
и радиационная безопасность**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2025.4.PhD/T6299.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном транспортном университете.

Автореферат диссертации доступен на трех языках (узбекский, русский, английский (разуме)) размещен на веб-сайте Научного Совета (www.tstu.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net.uz).

Научный руководитель:

Ибрагимов Бахром Ташмуратович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Абдазимов Шавкат Хакимович
доктор технических наук (DSc), и.о. профессор

Кадыров Улугбек Бахтиёрович
доктор философии по техническим наукам, доцент

Ведущая организация:

Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова

Защита диссертации состоится «17» марта 2026 г. в 13:00 часов на заседании Научного совета DSc.10/2025.27.12.T.01.03 при Ташкентском государственном транспортном университете. (Адрес: 100167, г. Ташкент, ул. Темирйўлчилар, 1. Тел.: (99871) 299-00-01; факс: (99871) 293-57-54; E-mail: rektorat@tstu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного транспортного университета (зарегистрирован под номером № 323). (Адрес: 100167, Ташкент ул. Темирйўлчилар, 1. Тел.: (99871) 299-05-66).

Автореферат диссертации разослан « ____ » _____ 2026 года.
(протокол рассылки № _____ от « ____ » _____ 2026 года).

Р.В. Рахимов

Председатель Научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор технических наук, профессор

Я.О. Рузметов

Ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор технических наук, профессор

С.С. Сулайманов

Председатель научного семинара,
при Научном совете по присуждению
ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире процессы расширения и устойчивого развития транспортно-коммуникационной инфраструктуры приводят к увеличению потребности в тоннелях, а в последние годы увеличение количества чрезвычайных ситуаций, наблюдаемых в процессе строительства тоннелей, придает особое значение вопросам обеспечения безопасности на этих сооружениях. В настоящее время в развитых странах "...при строительстве тоннелей горным способом ущерб, нанесённый вследствие чрезвычайных ситуаций, составляет 20-30 %, что приводит к остановке строительного процесса на 3-5 суток..."¹, что подчёркивает необходимость использования современных материалов для предотвращения чрезвычайных ситуаций в процессе строительства тоннелей, в частности, обеспечения высоких показателей надежности временных железобетонных покрытий. В связи с этим, в частности, в целях предотвращения чрезвычайных ситуаций в процессе строительства тоннелей, особое внимание уделяется использованию ресурсосберегающих и подходящих к местным условиям композиционных материалов, а также совершенствованию методов повышения прочности тоннельных конструкций.

В настоящее время в мире в целях обеспечения безопасности в процессе строительства тоннелей проводятся научно-исследовательские работы, направленные на улучшение качественных показателей бетона путем добавления местного базальтового волокна во временное железобетонное покрытие. В связи с этим одним из приоритетных направлений является обеспечение прочности и огнестойкости временных железобетонных покрытий тоннелей в условиях чрезвычайных ситуаций. В этом направлении, в том числе, актуальной задачей является проведение теоретических и экспериментальных исследований по применению бетона с добавлением базальтового волокна во временных железобетонных покрытиях при строительстве тоннелей горным способом, а также обеспечению его прочностных и огнестойких показателей в условиях чрезвычайных ситуаций.

В нашей республике реализуются масштабные меры по развитию обеспечения безопасности в процессе строительства тоннелей, в том числе по строительству тоннелей и модернизации дорожно-транспортной инфраструктуры, в этом направлении достигнуты определенные результаты. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 - 2026 годы, в частности, в пункте 82 "...сокращение времени строительства на 30% за счет снижения его стоимости...", а в пункте 342 определены задачи по "...предупреждению и оперативному устранению чрезвычайных ситуаций..."². При реализации этих задач одной из актуальных и важных задач является совершенствование состава материала временного железобетонного покрытия тоннелей путем

¹ <https://cyberleninka.ru/article/n/analiz-avariynyh-situatsiy-pri-sooruzhenii-avtodorozhnyh-tonneley-gornym-sposobom-v-inzhenerno-geologicheskikh-usloviyah-g-sochi>

² Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 - 2026 годы».

добавления местного базальтового волокна для предотвращения и ликвидации чрезвычайных ситуаций.

